



Davlat va huquq asoslaridan kazus va qonunlar

Tel raqam: +998940002224

NAVOIY-2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG‘I TO‘G‘RISIDA

1-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining sxematik va rangli tasviri tasdiqlansin.

2-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir.

3-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasining timsoli bo‘ladi.

4-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i — bayroqning butun uzunligi bo‘ylab o‘tgan to‘q moviy rang, oq rang va to‘q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to‘g‘ri to‘rburchak shaklidagi matodir.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining uzunligi 250 santimetrga, kengligi 125 santimetrga teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrga tengdir. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining o‘rtasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetrga teng qizil hoshiyalar o‘tkazilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining yuqori qismidagi moviy rangli enning yuz tomoni va orqa tomonida dastaga yaqin joyida oq rangli yangi oy va uning yonida o‘n ikkita oq rangdagi besh qirrali yulduz tasvirlangan.

Oq rangli yangi oy va o‘n ikkita oq rangli besh qirrali yulduzning tasviri moviy rangli yuqori enning o‘rtasidan 75x30 santimetrga teng to‘g‘ri to‘rburchakka sig‘adigan qilib joylashtirilgan.

Oq rangli yangi oy vertikal holatda do‘ng tomoni dastaga qaratilgan, dastadan 20 santimetr masofada joylashtirilgan bo‘lib, diametri 30 santimetri doiraga sig‘adi.

O‘n ikkita oq rangli besh qirrali yulduz diametri 6 santimetri doiraga sig‘adi. Doiralar orasidagi masofa 6 santimetr. Yulduzlar uzunasiga va tikkasiga quyidagi tartibda joylashadi: yuqori qatorda uchta, o‘rta qatorda to‘rtta va quyi qatorda beshta yulduz. Quyi qatordagi yulduzlar yangi oyning pastki uchidan 3,5 santimetr masofada joylashadi.

5-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i:

1) doimiy ravishda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorgohlarining;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining;

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashining;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining;

sudlarning; prokuratura organlarining binolarida;

2) doimiy ravishda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining;

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashining;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining majlislar zallarida;

3) doimiy ravishda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raislarining;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisining;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati raisining;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonining;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining;

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisining;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raisining;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashi raislarining;

viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlarining;

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, shuningdek xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari boshliqlarining xizmat xonalarida;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan bayram kunlarida — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlari bilan belgilangan markaziy ko‘chalarda, maydonlarda, boshqa jamoat joylarida va obyektlarda;

5) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, Senati a‘zolari, xalq deputatlari Kengashlarining deputatlari saylovi yoki referendum kunlarida — ovoz berish o‘tkazilayotgan binolar va xonalarda;

6) O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, shuningdek xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari binolarida yoki hududlarida va transport vositalarida — xalqaro huquq normalariga, diplomatik protokol qoidalariga hamda vakolatxonalar va muassasalar joylashgan davlatning qonunchiligiga muvofiq;

va hukumat boshliqlarining, boshqa rasmiy delegatsiyalarning xalqaro huquq normalariga, diplomatik protokol qoidalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishining tasdiqlangan dasturiga muvofiq transport vositalarida, vokzallarda, aeroportlarda, yurish yo‘nalishi bo‘yicha va boshqa tashrif obyektlarida;

8) rasmiy shaxslar sifatida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, O‘zbekiston Respublikasining boshqa rasmiy delegatsiyalari rahbarlari, O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, shuningdek xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari boshliqlari tushgan chet eldag'i dengiz va daryo kemalarida, boshqa transport vositalarida;

9) O‘zbekiston Respublikasi kemalar qatnovi inspeksiyasining kemalar reyestrida ro‘yxatga olingan dengiz va daryo kemalarida;

10) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy birlashmalarida, qo‘shilmalarida va qismlarida, shuningdek boshqa harbiy tuzilmalarida — O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy ustavlariga muvofiq;

11) doimiy ravishda O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida;

12) sport maydonlarida — O‘zbekiston Respublikasi championatlarini, milliy terma komandalar ishtirokida xalqaro sport musobaqalarini o‘tkazish vaqtida hamda xalqaro sport musobaqalarining O‘zbekiston Respublikasi sport terma komandalarining vakillari bo‘lgan g‘oliblarini mukofotlash marosimlarini o‘tkazish vaqtida ko‘tariladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga nisbatan hurmatni ta’minlagan holda, undan ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilmagan obyektlarda, shuningdek umummilliy bayramlarda, sport musobaqalarida, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirdalarida, madaniy va o‘zga ommaviy tadbirdarda, rasmiy xalqaro tadbirdarda, tantanali tadbirdarda, oilaviy bayramlarda, xotira sanalarini nishonlashda, jamiyat va davlat arboblarining, harbiy xizmatchilarning dafn marosimlarida hamda boshqa hollarda, shu jumladan yog‘och dastani (bayroq dastasini) ishlatmasdan foydalanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga nisbatan hurmatni ta’minlagan holda, undan jamoat joylarida, binolar va boshqa obyektlarda, yashash yoki ish joylarida, shuningdek ularga tutash bo‘lgan hududlarda, transport vositalarining salonida foydalaniishi mumkin.

5¹-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining tasviri tushirilgan belgilar:

O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro havo kemalari davlat reyestri yoki O‘zbekiston Respublikasi Davlat havo kemalari reyestriga kiritilgan havo kemalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Aviatsiya ma’muriyati hisobida turuvchi eksperimental havo kemalariga;

qonunchilikda belgilangan hollarda avtomototransport vositalari va ular tirkamalarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqam belgilariga;

O‘zbekiston Respublikasining asosiy chegara belgisiga qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasiga tegishlilikni belgilash maqsadida davlat organlarining ramziy belgilarida (bayroq, emblema — geraldik belgi, vimpel va boshqa ramzlar) va ularning Internet jahon axborot tarmog‘idagi rasmiy veb-saytlarida, O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlarining asosi yoki elementi sifatida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasiga tegishlilikni belgilash maqsadida predmetlarda, o‘quv-tarbiya jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining tasviri tushirilgan belgilardan foydalanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasiga tegishlilikni belgilash maqsadida rasmiy xalqaro tadbirdarda O‘zbekiston Respublikasi vakili bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining tasviri tushirilgan belgilardan foydalanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga nisbatan hurmatni ta’minlagan holda uning tasviri tushirilgan belgilardan jamoat joylarida, binolar va boshqa obyektlarda, yashash yoki ish joylarida, shuningdek ularga tutash bo‘lgan hududlarda, transport vositalarining salonida foydalanilishi mumkin.

Harbiy yoki boshqa davlat xizmatida bo‘lgan shaxslarning kiyim-boshida va farqlovchi nishonlarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining tasviri tushirilgan belgilardan foydalanilishi mumkin.

Xalqaro sport musobaqalari hamda O‘zbekiston Respublikasi championatlari uchun sport kiyim-boshini tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining tasviri tushirilgan belgilardan foydalanilishi mumkin.

5²-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining elementlarini nodavlat tashkilotlari hujjatlarining rekvizitlari yoki reklama materiallariga kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o‘tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emas, bundan O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga nisbatan hurmatni ta’minlagan holda uning tasviri tushirilgan belgilardan ustki kiyim-boshni bezatish yoki O‘zbekiston Respublikasiga tegishlilikni belgilash maqsadida foydalanish mustasno.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga nisbatan hurnatsiz munosabatda bo‘lishga, shu jumladan:

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘idan va uning tasviri tushirilgan belgilardan yirtilgan, ifloslangan, teshilgan, rangi o‘chgan holda va boshqa noma’qul tarzda foydalanishga;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘idan biror-bir narsa uchun ustki yoping‘ich sifatida foydalanishga;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘ini stollarga, o‘rindiqlarga, stillarga to‘sashga yoki uning tasvirini tushirishga va undan qoplama sifatida foydalanishga, shuningdek uni o‘tiriladigan boshqa joylarga yoki oyoq ostiga to‘sashga yoki uning tasvirini tushirishga;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘idan kiyim-bosh, dastro‘mol yoki ko‘rpa-to‘sak sifatida, shuningdek buyumlarni saqlash va tashish uchun foydalanishga;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining tasviri tushirilgan belgilarni poyabzalga, dastro‘molga, ko‘rpa-to‘sakka, ichki kiyimga, sochiqlarga, qutilarga (o‘rovlargacha), bir marta foydalanish va tashlab yuborish uchun mo‘ljallangan buyumlarga bosib chiqarishga yoki uning tasvirini boshqacha tarzda tushirishga;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘idan va uning tasviri tushirilgan belgilardan odob-axloq qoidalari va jamiyatda yurish-turish qoidalariiga zid ravishda yoxud ularni tahqirlash hisoblanadigan boshqacha tarzda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramziy belgilari O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga o‘xhash bo‘lishi mumkin emas.

6-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i:

ushbu Qonun 5-moddasining 4-bandida nazarda tutilgan hollarda soat 6 da ko‘tariladi va soat 22 da tushirib qo‘yiladi;

ushbu Qonun 5-moddasining 5-bandida nazarda tutilgan hollarda ovoz berish yoki referendum o‘tkazish davrida ko‘tarib qo‘yiladi;

ushbu Qonun 5-moddasining 7-bandida nazarda tutilgan hollarda xorijiy davlatlar davlat va hukumat boshliqlarining, boshqa rasmiy delegatsiyalarning tashrif buyurishidan 24 soat oldin ko‘tariladi va ular jo‘nab ketganidan keyin 24 soat mobaynida tushirib qo‘yiladi.

7-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i bilan bir vaqtida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat bayrog‘i ko‘tarilganda, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i (binoning old tomoniga qarab turganda) chap tomondan ko‘tarilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i bilan bir vaqtida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat bayrog‘i ko‘tarilganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat bayrog‘ining o‘lchami O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining o‘lchamidan katta bo‘lmasligi kerak, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining ko‘tarilish balandligi esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat bayrog‘ining ko‘tarilish balandligidan past bo‘lmasligi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i bilan bir vaqtida xorijiy davlatlar va (yoki) xalqaro tashkilotlar bayroqlari ko‘tarilganda O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i xalqaro huquq normalariga va diplomatik protokol qoidalariiga muvofiq ko‘tariladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i xorijiy davlatlar va (yoki) xalqaro tashkilotlar bayroqlari bilan bir xil balandlikda joylashtirilishi hamda bir xil o‘lchamga ega bo‘lishi kerak.

8-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i binolarning asosiy kirish joyida yoki buning uchun maqbul bo‘lgan boshqa joyda, yoxud tegishli tutqichi bo‘lgan dastada, yo bo‘lmasa flagshtokda bayroqning dastasi binoning old tomoni bilan ko‘pi bilan 45 gradusli burchak hosil qiladigan tarzda ko‘tariladi.

Ko‘tarib qo‘yilgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining matosi yer sathidan kamida 2,5 metr balandlikda bo‘lishi kerak.

9-modda.

Motam munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i motamga moslab ko‘tariladi. Bunday hollarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i dastasi yoki flagshtokning

yuqori uchiga bayroq enining 1/20 qismiga teng bo‘lgan kenglikdagi qora tasma bog‘lanadi, tasmaning ikki uchi bayroqning butun eni uzunligida osilib turadi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i motam munosabati bilan flagshtokda ko‘tarilgan taqdirda u flagshtok uzunligining 1/3 bo‘lagicha tushirib qo‘yiladi.

10-modda.

O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i va uning tasviri katta-kichikligidan qat’iy nazar, hamma vaqt ushbu Qonunga ilova qilinayotgan rangli va sxematik tasviriga aniq mos bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘ini tayyorlash, saqlash va yo‘q qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

11-modda.

Ushbu Qonun ijrosini ta’minalash tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘idan va uning tasviri tushirilgan belgilardan butun (yirtilmagan, teshilmagan), toza (ifloslanmagan), rangi o‘chmagan holda va ma’qul tarzda foydalanish uchun mas’uliyat ushbu Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘idan va uning tasviri tushirilgan belgilardan foydalanadigan jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan davlat organlarining zimmasiga yuklatiladi.


12-modda.

Ushbu Qonunning O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, shuningdek xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari tomonidan ijro etilishi ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, boshqa davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi ustidan nazorat esa ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

13-modda.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek O‘zbekistonda turgan boshqa shaxslar O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘ini hurmat qilishlari shart.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risidagi qonunchiligini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT GERBI TO'G'RISIDA

1-modda

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli va oq-qora tasviri tasdiqlansin
2-modda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzidir.

3-modda

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi quyidagi ko'rinishga ega: tog'lar, daryolar va so'l tomoni bug'doy boshqolaridan, o'ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g'o'za shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo'lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi — qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar lentasining bantida "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko'rinishida: Humo qushi va daryolar — kumush rangida; quyosh, boshqolar, paxta chanoqlari va "O'zbekiston" yozuviga — oltin rangida; g'o'za shoxlari va barglari, tog'lar va vodiy — yashil rangda; chanoqlardagi paxta — oq rangda; lenta — O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ranglarini aks ettiruvchi uch xil rangda; sakkizburchak — oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havo rangda; yarim oy va yulduzlar — oq rangida tasvirlangan.

4-modda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri:

1) doimiy ravishda:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorgohlarining;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining;

respublika davlat boshqaruvi organlarining;

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining;

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashining;

mahalliy davlat hokimiyyati organlarining;

sudlarning;

prokuratura organlarining;

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, shuningdek xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari binolarining old tomoniga;

2) doimiy ravishda:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va uning Kengashining;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va uning Kengashining;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining;

respublika davlat boshqaruvi organlarining;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining;
O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining;
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining;
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining;
O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining;
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining;
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashining;
mahalliy davlat hokimiyati organlarining;
sudlarning;
fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarining nikoh tantanali ravishda
ro‘yxatga olinadigan majlislar zallariga;

3) doimiy ravishda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining;
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining;
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining;
O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining;
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy
sudi raislarining;
respublika davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining;
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining;
O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisining;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati raisining;
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonining;
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining;
O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisining;
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raisining;
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashi
raislarining;

viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlarining;

O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari,
shuningdek xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari boshliqlarining xizmat
xonalariga joylashtiriladi;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining;
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining;
O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari normativ-huquqiy
hujjatlarining;

mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining blankalarida;

5) quyidagilarning:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va uning devonining;
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, uning Kengashi,
qo‘mitalari va devonining;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, uning Kengashi, qo‘mitalari va
devonining;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining;

davlat boshqaruvi organlarining;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati organlarining;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlarining;
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining;
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki muassasalarining;
O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining;
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining;
mahalliy davlat hokimiyati organlarining;
sudlarning;
prokuratura organlarining;
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Inson huquqlari bo‘yicha vakilining
(ombudsmaning);
O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining, konsullik
muassasalarining, shuningdek xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalarining;
notariuslarning hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar
va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi notarial arxivlarning;
qonunchilik bilan muhrlari va hujjat blankalarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat
gerbining tasvirini tushirish huquqi berilgan boshqa davlat organlari hamda
tashkilotlarning muhrlarida va hujjatlari blankalarida;

6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisi palatalarining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, O‘zbekiston
Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining,
shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarining rasmiy nashrlarida;

7) O‘zbekiston Respublikasining pul belgilarida;

8) O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportida, identifikatsiyalovchi ID-
kartasida va diplomatik pasportida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida doimiy
yashovchi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning
identifikatsiyalovchi ID-kartalarida;

9) O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegaralarida o‘rnatiladigan sarhad
ustunlarida;

10) O‘zbekiston Respublikasi pochta aloqasi milliy operatorining pochta vagonlari
va pochta qutilarida;

11) umumdavlat namunasidagi hujjatlarda;

12) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga
Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari Kengashlari deputatlari sayovlari yoki
referendum kunlari — ovoz berish o‘tkaziladigan binolarda aks ettiriladi.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining
bo‘rtma tasviridan foydalanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviridan O‘zbekiston Respublikasiga
tegishlilikni belgilash maqsadida predmetlarda, o‘quv-tarbiya jarayonida, shuningdek
O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlarining elementi sifatida foydalanilishi mumkin.

5-modda

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining takrorlanayotgan tasviri, uning katta-
kichikligidan qat’i nazar, ushbu Qonunga ilova qilinayotgan rangli va oq-qora tasviriga
aniq mos bo‘lishi kerak.

5¹-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining elementlarini nodavlat tashkilotlari
hujjatlarining rekvizitlari yoki reklama materiallariga kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o‘tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emas.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzları O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbiga o‘xshash bo‘lishi mumkin emas.

6-modda.

Ushbu Qonun ijrosini ta’minlash tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

7-modda.

Ushbu Qonunning O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, shuningdek xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari tomonidan ijro etilishi ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, boshqa davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi ustidan nazorat esa ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

(

8-modda

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek O‘zbekistonda turgan boshqa shaxslar O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbini hurmat qilishlari shart.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risidagi qonunchiligini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI TO'G'RISIDA

1-modda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni va musiqaviy tahriri tasdiqlansin .

2-modda.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasiga zo'r ehtirom bilan qarash O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

3-modda.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish chog'ida — u qasamyod qabul qilganidan so'ng;

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi sessiyalarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati yalpi majlislarining ochilishi hamda yopilishi chog'ida;

3) O'zbekiston Respublikasida nishonlanadigan umummilliy bayramlarga bag'ishlangan tantanali yig'ilishlar va majlislarning ochilishi chog'ida;

4) davlat televide niye va radioeshittirish kompaniyalari tomonidan har kuni — ko'rsatuv va eshittirishlar boshlanishidan avval va tugaganidan so'ng, ko'rsatuv va eshittirishlar kechayu kunduz olib borilganida esa soat 6 da va soat 24 da, yangi yil kechasida — soat 24 da;

5) respublika hayotidagi muhim tarixiy voqealarni nishonlash yuzasidan, atoqli siyosiy, davlat, harbiy arboblar, xalq qahramonlari, fan, adabiyot va san'at arboblari sharafiga o'rnatilgan haykallar, shuningdek monumentlar, yodgorliklar va boshqa inshootlarning ochilishi chog'ida;

6) davlat organlari, boshqa tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan marosimlar va boshqa tantanali tadbirilar vaqtida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ini ko'tarish chog'ida;

7) rasmiy safar bilan O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy davlatlar davlat va hukumat boshliqlarini kutib olish va kuzatish chog'ida — tegishli xorijiy davlatning davlat madhiyasi ijro qilib bo'linganidan keyin;

8) harbiy marosimlarni o'tkazish vaqtida — O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy ustavlariga muvofiq;

9) umumiyl o'rta, o'rta maxsus, professional va oliv ta'lim tashkilotlarida — yangi o'quv yili boshlanishi va o'quv yili tugashi marosimlari chog'ida;

10) sport maydonlarida — O'zbekiston Respublikasi championatlarini, milliy terma komandalar ishtirokida xalqaro sport musobaqalarini o'tkazish vaqtida hamda xalqaro sport musobaqalarining O'zbekiston Respublikasi sport terma komandalarining vakillari bo'lgan g'oliblarini mukofotlash marosimlarini o'tkazish vaqtida;

11) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari Kengashlari deputatlari saylovlari yoki referendum kunlari — ovoz berish o'tkaziladigan binolarda soat 8.00 da ijro etiladi.

4-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi unga nisbatan lozim darajadagi hurmat ta’minlangan holda umummilliy bayramlar va tantanali tadbirlar vaqtida ijro etilishi mumkin.

5-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi orkestr, xor, ham orkestr ham xor tomonidan yoki o‘zga vokal va cholg‘u asboblari bilan ijro etilishi mumkin. Bunda ovoz yozib olish vositalaridan foydalanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi vokal hamda vokal-cholg‘u asboblari bilan ijro etilgan taqdirda to‘liq ijro etiladi, cholg‘u asboblarining o‘zida ijro etilgan taqdirda esa madhiya qisman ijro etilishiga yo‘l qo‘yiladi — ashulaning boshlanishi va naqorat bir martadan aytildi.

6-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi madhiyaning ushbu Qonun bilan tasdiqlangan matni va musiqaviy tahririga aynan muvofiq holda ijro etilmog‘i lozim.

7-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ko‘pchilik huzurida ijro etilganda, agar qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, hozir bo‘lgan kishilar madhiyani tik turib va o‘ng qo‘l kaftini ko‘krakning chap tomoniga qo‘yib, harbiy yoki davlatning boshqa xizmatidagi maxsus kiyimdagisi shaxslar esa qo‘lini bosh kiyimiga qo‘yib tinglaydi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining ijro etilishi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining ko‘tarilishi bilan birgalikda amalga oshirilsa, hozir bo‘lgan kishilar unga yuzi bilan buriladi.

8-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini:

harbiy qismlarda, harbiy kemalarda ijro etish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ijro etilayotgan paytda harbiy xizmatchilarning harbiy salom berishi — harbiy ustavlar bilan;

ichki ishlar organlarida ijro etish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ijro etilayotgan paytda ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarning salom berishi — O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining buyruqlari bilan belgilanadigan qoidalar bilan;

ta’lim tashkilotlarida ijro etish — O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi manfaatdor tashkilotlar bilan kelishib belgilab qo‘yadigan qoidalar bilan tartibga solinadi.

9-modda.

O‘zbekiston Respublikasi hududida respublika va xalqaro sport musobaqalarini o‘tkazish vaqtida O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligi manfaatdor tashkilotlar bilan kelishib turib belgilab qo‘yadigan qoidalarga muvofiq ijro etiladi.

Xalqaro sport musobaqalarini o‘tkazish vaqtida O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini ijro etish marosimi xalqaro sport tashkilotlarining mavjud amaliyotini inobatga olgan holda belgilanadi.

10-modda.

Xorijiy davlatlar hududida O‘zbekiston Respublikasining muassasalari va tashkilotlari o‘tkazadigan tadbirlar vaqtida O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi o‘sha mamlakat tajribasi va mahalliy urf-odatlarini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi belgilab qo‘yadigan qoidalarga muvofiq ijro etiladi.

11-modda.

Ichki ishlar organlarida, ta’lim muassasalarida, sport musobaqalari vaqtida, shuningdek xorijiy davlatlar hududida O‘zbekiston Respublikasining muassasalari va tashkilotlari tegishli tadbirlar o‘tkazgan vaqtida O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini ijro etish qoidalari ushbu Qonun talablariga asoslanib belgilanadi.

12-modda.

Ushbu Qonunning ijrosini ta’minlash tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

Ushbu Qonunning ijo etilishi ustidan nazorat ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

13-modda.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek O‘zbekistonda turgan boshqa shaxslar O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini hurmat qilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risidagi qonunchiligini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘s tlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!
Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!
Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iyemoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash‘ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!
Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 4-mayda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 26-iyunda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi vijdon erkinligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni, shuningdek diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solishdan iborat.

2-modda. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilik

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilik O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchiligidagi nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

diniy ta'lif muassasasi — muayyan konfessiyaga mansub bo'lgan, diniy tashkilotlarning professional xizmatchilarini va ular uchun zarur bo'lgan diniy xodimlarni tayyorlash uchun diniy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha markaziy boshqaruvi organi tomonidan tashkil etilgan muassasa;

diniy tashkilot — fuqarolarning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan, birgalikda dinga e'tiqod qilish, ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar va marosimlarni bajarish maqsadida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan ko'ngilli birlashmasi (mahalliy diniy tashkilot, diniy ta'lif muassasasi va diniy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha markaziy boshqaruvi organi);

diniy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha markaziy boshqaruvi organi — bir konfessiyaning mahalliy diniy tashkilotlari, shuningdek diniy ta'lif muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining kamida sakkizta ma'muriy-hududiy birligida (Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatda, Toshkent shahrida) ro'yxatdan o'tib faoliyat ko'rsatayotgan mahalliy diniy tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan diniy tashkilot;

mahalliy diniy tashkilot — O'zbekiston Respublikasining tegishli tumani (shahari) hududida doimiy yashayotgan, o'n sakkiz yoshga to'lgan, ellik nafardan kam bo'lмаган O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tashabbusi bilan tashkil etilgan, faoliyatini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman yoki shahar hududida amalga oshiruvchi diniy tashkilot (masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, ibodatxonalar va boshqalar);

missionerlik — aniq maqsadga qaratilgan mafkuraviy ta'sir o'tkazish orqali shaxsni (bir guruh shaxslarni) o'z diniga kiritish maqsadida unga (ularga) diniy qarashlarni majburan singdirishga va diniy ta'limotni tarqatishga doir faoliyat;

qonunga xi洛of diniy faoliyat — diniy tashkilot sifatida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatish, diniy tashkilot tomonidan faoliyatni o'zi turgan joydan, shu jumladan ibodat qilinadigan binolardan va diniy tashkilotga tegishli hududlardan tashqarida amalga oshirish, shuningdek diniy ta'lim muassasalaridan tashqarida xususiy tartibda diniy ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish;

diniy professional ta'lim — diniy ta'lim muassasalarida o'quvchilarga ma'lum bir konfessiyaga oid diniy bilimlar berishga qaratilgan jarayon;

prozelitizm — missionerlik faoliyatining bir konfessiyaga e'tiqod qiluvchilarni boshqa konfessiyalarga o'tkazishga qaratilgan shakli.

2-bob. Vijdon erkinligini ta'minlash asoslari

4-modda. Vijdon erkinligini ta'minlash

Vijdon erkinligi — bu fuqarolarning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod qilmaslikka, ibodatlarda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka, diniy ta'lim olishga nisbatan o'z munosabatini belgilayotganda uni u yoki bu tarzda majburlashga yo'l qo'yilmaydi.

Voyaga yetmaganlarni ularning xohish-irodasiga, ota-onasining yoki qonuniy vakillarining xohish-irodasiga zid tarzda diniy tashkilotlarga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

O'z diniga e'tiqod qilish yoki ishonish erkinligiga nisbatan faqat qonunda nazarda utilgan cheklolvlardan etiladi.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirish, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligiga putur yetkazish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitish, urushni, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qilish, fuqarolarning sog'lig'i va axloqiga tajovuz qilish, fuqarolar totuvligini buzish, vaziyatni beqarorlashtiruvchi tuhmatdan iborat uydirmalarni tarqatish, aholi o'rtasida sarosima uyg'otish hamda shaxs, jamiyat va davlatga qarshi qaratilgan boshqa harakatlar sodir etish maqsadida dindan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

5-modda. Vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari

Vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yagan holda, ularning vijdon erkinligiga bo'lgan o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish;

konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash;

vijdon erkinligini ta'minlashda dunyoviy davlat qurilishini saqlab qolish;

vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilikka fuqarolar hamda diniy tashkilotlar tomonidan rioya etilishini ta‘minlash;

jamoat tartibiga, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog‘lig‘i va axloqiga, huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi diniy g‘oyalar hamda qarashlarning singdirilishi va tarqatilishiga qarshi kurashish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita vijdon erkinligini, shuningdek vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilikning amalda izchil hamda bir xil tarzda qo‘llanilishini ta‘minlashga doir choralarning amalga oshirilishi uchun mas’ul bo‘lgan vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda vakolatli organ deb yuritiladi).

6-modda. Fuqarolarning dinga munosabatidan qat‘i nazar teng huquqliligi

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, dinga munosabatidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdir.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va dinga e’tiqod qilish erkinligi huquqidan foydalanadi hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Rasmiy hujjatlarda fuqarolarning dinga nisbatan munosabatini ko‘rsatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Fuqarolarning huquqlarini ularning dinga munosabatiga qarab har qanday tarzda cheklash va to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita ustunliklar belgilash, ularning diniy yoki ateistik e’tiqodi bilan bog‘liq holda fuqarolarda adovat va nafrat uyg‘otish yoxud ularning his-tuyg‘ularini haqoratlash, xuddi shuningdek muqaddas diniy e’tiqod obyektlarini tahqirlash qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan hech kim o‘z diniy e’tiqodlarini sabab qilib bo‘yin tovashi mumkin emas. Diniy e’tiqodlarini sabab qilib, bir majburiyatni bajarishni boshqasiga almashtirishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

Bir dinga yoki diniy e’tiqodga boshqalariga nisbatan biror-bir ustunliklar yoki chekllovlar belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi.

7-modda. Dinning davlatdan ajratilganligi

O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va davlat organlarining faoliyati o‘zaro aralashmaslik asosida amalga oshiriladi.

Davlat turli dinlarga e’tiqod qiladigan va ularga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatalishiga ko‘maklashadi, diniy aqidaparastlik hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo‘yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi.

Davlat konfessiyalarning tinch-totuv yashashiga kafil bo‘ladi. Missionerlik va prozelitizmni amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga davlatning biror-bir vazifalarini bajarishni yuklamaydi, ularning qonunchilikka zid bo‘lmanan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini moliyalashtirmaydi va denga e’tiqod qiluvchilarning din bilan bog‘liq his-tuyg‘ularini haqoratlaydigan faoliyatga yo‘l qo‘ymaydi.

O‘zbekiston Respublikasida diniy ruhdagi siyosiy partiya va boshqa jamoat birlashmasining, respublikadan tashqarida tuziladigan diniy partiyalar vakolatxonalari va filiallarining tashkil etilishiga hamda faoliyatiga, siyosiy partiyalar va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat birlashmalari faoliyatida diniy tashkilotlarning ishtirok etishiga, shuningdek ularga moliyaviy yoki boshqa yordam ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

8-modda. Ta’lim tizimi va din

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi dindan ajratilgandir.

Ta’lim tizimining o‘quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga (bundan diniy ta’lim muassasalari mustasno) yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta’lim olish huquqi, ularning denga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar, ta’minlanadi.

Har kim diniy ta’lim muassasalarida professional diniy ta’lim olish huquqiga ega.

Diniy ta’lim muassasalarida o‘qishga fuqarolar qonunchilikka muvofiq umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim yoki professional ta’lim olganidan keyin qabul qilinadi.

Diniy professional ta’lim olgan shaxslar diniy ta’lim muassasalarida diniy fanlarni o‘qitish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga egadir.

9-modda. Diniy rasm-rusumlar va marosimlar

Diniy rasm-rusumlar va marosimlar diniy tashkilotlar joylashgan joyda, shu jumladan ibodat qilinadigan binolarda hamda ularga tegishli hududlarda, dafn etish joylarida, ziyoratgohlarda, diniy zaruriyat bo‘lgan taqdirda fuqarolarning xohishiga ko‘ra ularning uylarida o‘tkaziladi.

Kasalxonalarda, gospitallarda, internat muassasalarida, dastlabki qamoq va jazoni o‘tash joylarida, ichki ishlar organlarining rehabilitatsiya markazlarida diniy rasm-rusumlar va marosimlar qonunchilikda belgilangan tartibda, shu joylardagi fuqarolarning iltimoslariga ko‘ra o‘tkazilishi mumkin.

Ibodat qilinadigan binolardan tashqaridagi ommaviy diniy rasm-rusumlar va marosimlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlar denga e’tiqod qiluvchilardan majburiy pul yig‘imlari va to‘lovlar undirishga, shuningdek ularga nisbatan shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kansituvchi choralarini qo‘llashga haqli emas.

10-modda. Diniy mazmundagi materiallar, ularni tayyorlash, olib kirish va tarqatish

Diniy mazmundagi materiallar diniy ta’limotning aqidaviy asoslarini, tarixini, diniy ta’limot mafkurasini va sharhlarni, turli diniy ta’limotlarning marosimlar o‘tkazish amaliyotini, shuningdek alohida shaxslarning, tarixiy faktlar va hodisalarning diniy nuqtai nazardan bahosini aks ettiruvchi kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar, varaqlar, boshqa

bosma nashrlar, belgilar, predmetlar, ramzlar, audiovizual asarlar (tele-, kino- va videofilmlar, kliplar, konsert dasturlarining yozuvlari, multfilmlar va boshqalar), elektron axborot tashuvchilardan (disketlar, CD, DVD disklari, o'rnatilgan va yechib olinadigan xotira kartalari, Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirilgan materiallar va boshqalar) iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materialarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish jamiyatda konfessiyalararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik buzilishiga olib keladigan, diniy zo'ravonlik va boshboshoqlikka chorlaydigan g'oyalar hamda qarashlar tarqalishining oldini olish maqsadida dinshunoslik ekspertizasining ijobiy xulosasi olinganidan keyin amalga oshiriladi.

Diniy mazmundagi materialarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

3-bob. Diniy tashkilot tashkil etish, uning huquq va majburiyatları. Diniy tashkilotlar faoliyatining qo'shimcha kafolatlari

11-modda. Diniy tashkilotni tashkil etish

Diniy tashkilot qonunchilikka muvofiq uning tashabbuskorlari (ta'sischilari) qaroriga ko'ra tashkil etiladi.

Diniy tashkilotning tashabbuskorlari (ta'sischilari) ta'sis yig'ilishini (konferensiyasini) chaqiradi, unda ustav qabul qilinadi va rahbar organlar tuziladi.

Diniy tashkilot ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Diniy tashkilot yuridik shaxsdir.

Diniy tashkilot diniy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha markaziy boshqaruvi organi (bundan buyon matnda markaziy boshqaruvi organi deb yuritiladi), diniy ta'lim muassasasi yoki mahalliy diniy tashkilot shaklida tashkil etilishi mumkin.

Diniy ta'lim muassasasi ro'yxatdan o'tkazilganidan va vakolatli organning tegishli litsenziyasini olganidan keyin o'z faoliyatini amalga oshirish huquqini oladi.

Diniy tashkilot belgilangan tartibda taqdim etiladigan yer uchastkalarida, vakolatli organ bilan kelishuvga ko'ra tashkil etiladi.

Tegishli diniy professional ta'limga ega bo'lgan shaxs diniy tashkilotning rahbari bo'lishi mumkin, bundan diniy ta'limotida diniy professional ta'lim tizimi nazarda tutilmagan konfessiyalar mustasno.

Diniy tashkilotni qayta tashkil etish uning rahbar organining qaroriga ko'ra qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Diniy tashkilotni qayta tashkil etish qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

12-modda. Diniy tashkilotning huquq va majburiyatları

Diniy tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

shartnoma asosida beriladigan binolardan va mol-mulkdan, shuningdek moddiy-madaniy meros obyektlaridan qonunchilikda belgilangan tartibda o‘z ehtiyojlar uchun foydalanish;

xayriya faoliyatini amalga oshirish;

diniy tashkilotning faoliyati bilan bog‘liq tadbirlar o‘tkazish;

ustavda ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;

diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va olib chiqish;

ziyoratlarni tashkil etish yoki boshqa diniy tadbirlarda ishtirok etish maqsadida xalqaro aloqalar o‘rnatish;

yangi dafn etish joylarini tashkil etish va mavjud dafn etish joylarini ta’mirlash to‘g‘risida takliflar kiritish.

Diniy tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga va o‘z ustavi qoidalariga rioya etishi;

ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar yoki marosimlar uchun mo‘ljallangan joylarda qulay shart-sharoitlar yaratishi;

diniy tashkilot egaligida (foydalanishida) bo‘lgan moddiy madaniy meros obyektlarining but saqlanishini ta’minlashi, bunda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan talablarni majburiy tartibda bajarishi, arxitektura yodgorliklarini restavratsiya qilish bo‘yicha loyiha hujjatlari asosida qurilish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirishi;

adliya organlarini tadbirlar (konferensiyalar, seminarlar va boshqalar, bundan diniy rasm-rusumlar va marosimlar mustasno) erkin o‘tkazilishida ko‘maklashish uchun ularning o‘tkazilishi to‘g‘risida xabardor etishi;

adliya organlarini rahbar organning tarkibi o‘zgaganligi to‘g‘risida ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran bir oy ichida xabardor qilishi;

adliya organlariga o‘zining o‘tgan yilgi faoliyati to‘g‘risida belgilangan shaklda har yili axborot taqdim etishi shart.

Diniy tashkilot qonunda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va uning zimmasida o‘zga majburiyatlar bo‘lishi mumkin.

13-modda. Diniy tashkilotlar faoliyatining qo‘srimcha kafolatlari

Diniy tashkilotlar o‘z faoliyatini qonunchilikka muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Diniy tashkilotlar o‘z mulkida binolarga, inshootlarga, ibodat predmetlariga, ishlab chiqarish obyektlariga, ijtimoiy obyektlarga va xayriya uchun mo‘ljallangan obyektlarga, o‘z faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lariga va boshqa mol-mulkka ega bo‘lishi mumkin. Diniy tashkilotlarning mulki qonun bilan qo‘riqlanadi.

Diniy tashkilotlar davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Diniy tashkilotlar davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining diniy tashkilotlar huquqlari va erkinliklarini buzuvchi harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda davlat bojini to‘lashdan ozod etiladi.

4-bob. Diniy tashkilotni ro‘yxatdan va qayta ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi

14-modda. Diniy tashkilotning ta’sis hujjati

Diniy tashkilotni tashkil etish tashabbuskorlari (ta’sischilari) tomonidan tasdiqlangan ustav diniy tashkilotning ta’sis hujjatidir.

Diniy tashkilotning ustavida quyidagilar nazarda tutiladi:

diniy tashkilotning nomi, turi, ta’limot asoslari to‘g‘risidagi axborot va unga mos keladigan diniy faoliyat haqidagi ma’lumotlar, uning tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan eri (pochta manzili), o‘z faoliyatini qaysi hudud doirasida amalga oshirsa, o‘sha hudud;

maqsadi, vazifalari va faoliyatining asosiy turlari;

diniy tashkilotning tuzilishi va rahbar organlari;

diniy tashkilotning rahbar organlarining vakolat doirasi va ushbu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari muddatlari, doimiy asosda faoliyat ko‘rsatadigan rahbar organning joylashgan eri (pochta manzili);

pul mablag‘larini va boshqa mol-mulkni shakllantirish manbalari, diniy tashkilotning hamda uning tarkibiy bo‘linmalarining mol-mulkni boshqarishga doir huquqlari;

diniy tashkilotni qayta tashkil etish va tugatish tartibi, shuningdek diniy tashkilot tugatilgan taqdirda uning mol-mulkini tasarruf etish tartibi;

ustavga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish tartibi.

Ustavda diniy tashkilotning qonunchilikka zid bo‘lmagan faoliyatiga taalluqli boshqa qoidalar ham nazarda tutilishi mumkin.

Diniy tashkilot ustavining talablari diniy tashkilotning o‘zi, uni tuzish tashabbuskorlari (ta’sischilari) uchun majburiydir.

Markaziy boshqaruv organlariga ega bo‘lgan diniy tashkilotlarning ustavlari ushbu organlar bilan kelishilgan bo‘lishi kerak.

15-modda. Diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) chog‘ida davlat xizmatlari ko‘rsatish

Davlat xizmatlari, shu jumladan diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazishda (qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda) xizmatlar adliya organlarining elektron tizimi orqali ko‘rsatiladi.

Elektron tizimga kirish elektron raqamli imzo yoki shaxsni identifikatsiyalash imkonini beruvchi boshqa usullar orqali amalga oshiriladi.

Murojaat qiluvchi elektron tizimga kirganidan keyin o‘zining shaxsiy kabinetidagi tegishli murojaat turini tanlaydi, ma’lumotlarni bosqichma-bosqich kiritadi va hujjatlarni elektron tizim orqali yuboradi.

Elektron tizimda shakllantirilgan yoki adliya organlari tomonidan yuborilgan elektron hujjatlarda matritsali shtrix kod (QR-kod) va identifikatsiyalangan raqamlar mavjud bo‘ladi. Bunda elektron hujjatda ko‘rsatilgan identifikatsiyalangan raqamni elektron tizimning maxsus bo‘limiga kiritish orqali elektron hujjat to‘g‘risidagi axborotni olish uchun imkoniyat yaratiladi.

Elektron tizimning ishlash tartibi, ma’lumotlarning turlari va shakllari, shuningdek elektron hujjatlarning namunalari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

16-modda. Diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish

Diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish adliya organlari (bundan buyon matnda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Markaziy boshqaruv organlarini va diniy ta’lim muassasalarini ro‘yxatdan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, mahalliy diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish esa tegishinchcha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi diniy tashkilotlarning chet el fuqarolari bo‘lgan xodimlarini (rahbarlarini), shuningdek ularning o‘z qaramog‘ida bo‘lgan oila a’zolarini akkreditatsiya qilishni amalga oshiradi.

Diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazganlik, diniy tashkilotlarning chet el fuqarolari bo‘lgan xodimlarini, shuningdek ularning o‘z qaramog‘ida bo‘lgan oila a’zolarini akkreditatsiya qilganlik uchun “Davlat boji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

Diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazgan organ ushbu tashkilot faoliyatining ustav maqsadlariga va qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

17-modda. Diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talab qilinadigan hujjatlar

Diniy tashkilotni tashkil etish bo‘yicha ta’sis yig‘ilishi (konferensiyasi) o‘tkazilgan kundan e’tiboran olti oy ichida uni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron murojaat ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga yuboriladi.

Markaziy boshqaruv organini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron murojaatga quyidagi hujjatlarning elektron ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi:

ta’sis yig‘ilishining (konferensiyasining) markaziy boshqaruv organini tashkil etish, uning ustavini tasdiqlash va boshqaruv organlarini saylash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qarorining;

markaziy boshqaruv organining davlat tilidagi ustavining;

joylashgan eridan diniy tashkilotning pochta manzili sifatida foydalanilishi mo‘ljallanayotgan ko‘chmas mulkka egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqllovchi hujjatning;

markaziy boshqaruv organining ta’sischilari va uning rahbar organi a’zolari to‘g‘risidagi hujjatlarning;

markaziy boshqaruv organining rahbarida diniy professional ma’lumot mavjudligini tasdiqllovchi hujjatning, bundan ta’limoti diniy professional ta’lim tizimini nazarda tutmaydigan konfessiyalar mustasno;

vakolatli organ xulosasining.

Diniy ta’lim muassasasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron murojaatga quyidagi hujjatlarning elektron ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi:

markaziy boshqaruv organining diniy ta’lim muassasasini tashkil etish, uning ustavini tasdiqlash va rahbar organlarini saylash (tayinlash) bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qarorining;

diniy ta’lim muassasasining davlat tilidagi ustavining;

diniy ta’lim muassasasining rahbar organi a’zolari to‘g‘risidagi hujjatlarning;

vakolatli organ xulosasining.

Mahalliy diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron murojaatga quyidagi hujjatlarning elektron ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi:

mahalliy diniy tashkilotni o‘z tashabbusiga ko‘ra tuzayotgan, o‘n sakkiz yosha to‘lgan, ellik nafardan kam bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari imzolarini o‘z ichiga olgan hujjatning;

ta’sis yig‘ilishining mahalliy diniy tashkilotni tashkil etish, uning ustavini tasdiqlash va rahbar organlarini saylash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qarorining;

mahalliy diniy tashkilotning davlat tilidagi ustavining;

mahalliy diniy tashkilotni tashkil etish tashabbuskorlari to‘g‘risidagi va uning rahbar organi a’zolari haqidagi hujjatlarning;

mahalliy diniy tashkilotning rahbarida diniy professional ma’lumot mavjudligi to‘g‘risidagi hujjatning, bundan ta’limoti diniy professional ta’lim tizimini nazarda tutmaydigan konfessiyalar mustasno;

vakolatli organ xulosasining;

mahalliy diniy tashkilotning pochta manzili sifatida foydalanilishi mo‘ljallanayotgan ko‘chmas mulkning shaharsozlik normalari talablariga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulosalar ilova qilingan holda mahalliy ijroiya hokimiyati organi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari) xulosasining.

18-modda. Qayta tashkil etish yo‘li bilan tashkil etilgan diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talab qilinadigan hujjatlar

Qo‘sib yuborish, qo‘sib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish yoki o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish yo‘li bilan tashkil etilgan diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron murojaatga ushbu Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarga qo‘sishimcha ravishda quyidagi hujjatlarning elektron ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi:

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotga ma’lum bo‘lgan barcha kreditorlar yozma ravishda xabardor qilinganligi va ommaviy axborot vositalarida qayta tashkil etish haqidagi xabar e’lon qilinganligi tasdiqnomasining;

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotning barcha kreditorlari va qarzdorlariga nisbatan ushbu tashkilotning barcha majburiyatları, shu jumladan taraflar nizolashayotgan majburiyatlar bo‘yicha huquqiy vorislik to‘g‘risidagi qoidalarni o‘z ichiga olgan topshirish dalolatnomasining (qo‘sib yuborish va o‘zgartirish chog‘ida) yoki taqsimlash balansining (bo‘lish va ajratib chiqarish chog‘ida);

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotning muhri va shtampi yo‘q qilinganligi haqidagi dalolatnomaning.

19-modda. Diniy tashkilot ustaviga o‘zgartish va (yoki) qo‘sishimchalar kiritilganda uni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish

Diniy tashkilotning ustaviga o‘zgartishlar va (yoki) qo‘sishimchalar kiritilgan taqdirda, ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda qayta ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi talablar diniy tashkilotni qayta ro‘yxatdan o‘tkazishga nisbatan tatbiq etiladi.

Diniy tashkilotni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish haqidagi elektron murojaat ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga diniy tashkilot ustaviga o‘zgartishlar va (yoki) qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida diniy tashkilotning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilingan kundan e’tiboran bir oy ichida yuboriladi.

Diniy tashkilotni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron murojaatga quyidagi hujjatlarning elektron ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi:

ustavga kiritiladigan o‘zgartishlar va (yoki) qo‘sishimchalar matnining yoki ustav yangi tahririning;

diniy tashkilot rahbar organining ustavga o‘zgartish va (yoki) qo‘sishimchalar kiritish haqidagi qarorining;

diniy tashkilotning nomi yoki ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ o‘zgargan taqdirda — diniy tashkilotning muhri va shtampi yo‘q qilinganligi to‘g‘risidagi dalolatnomaning.

Diniy tashkilot qayta tashkil etilganligi (ajratib chiqarilganligi yoki qo‘sib olinganligi) munosabati bilan qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan taqdirda ushbu moddada nazarda tutilgan hujjatlarga qo‘sishimcha ravishda quyidagi hujjatlarning elektron ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi:

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlar yozma ravishda xabardor qilinganligi va ommaviy axborot vositalarida qayta tashkil etish to'g'risidagi xabar e'lon qilinganligi tasdiqnomasining;

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotning barcha kreditorlari va qarzdorlariga nisbatan ushbu tashkilotning barcha majburiyatları, shu jumladan taraflar nizolashayotgan majburiyatlar bo'yicha huquqiy vorislik haqidagi qoidalarni o'z ichiga olgan topshirish dalolatnomasining yoki taqsimlash balansining;

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotning muhri va shtampi yo'q qilinganligi to'g'risidagi dalolatnomaning.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ o'zgargan taqdirda, diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshiruvchi ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ilgari diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirgan ro'yxatdan o'tkazuvchi organdan tashkilotning ro'yxatdan o'tkazilishi bilan bog'liq hujjatlarni elektron tizim orqali so'rab oladi.

Pochta manzili, bank rekvizitlari yoki rahbar organning tarkibi o'zgargan taqdirda, diniy tashkilot ushbu masalalar bo'yicha qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oylik muddat ichida elektron tizim orqali tegishli qarorlarni ilova qilgan holda ro'yxatdan o'tkazuvchi organni bu haqda xabardor qiladi.

20-modda. Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi murojaatni ko'rib chiqish

Elektron murojaatni yuboruvchi elektron so'rovni shakllantirishni yakunlab, elektron tizim tomonidan avtomatik tarzda belgilanadigan davlat boji to'lovini amalga oshiradi.

Davlat boji to'langanidan keyin diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi murojaat ko'rib chiqish bosqichiga o'tadi.

Agar murojaatda to'g'rilash mumkin bo'lgan xatolar mavjud bo'lsa yoki ushbu Qonunda talab qilinadigan yoxud elektron murojaatni yuboruvchi havola qilayotgan hujjatlar mavjud bo'lmasa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ unga besh ish kuni ichida xatolarni tuzatish va yetishmayotgan hujjatlarni yuborish uchun imkon beradi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ elektron murojaatni yuboruvchining iltimosnomasiga ko'ra bu muddatni besh ish kunidan kam bo'lмаган muddatga uzaytirishi mumkin.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun yuborilgan hujjatlarning ishonchlilagini va ularning qonunchilikka muvofiqligini tekshirishga haqli.

21-modda. Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlarni ko'rib chiqish muddatları

Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan quyidagi muddatlar ichida ko'rib chiqiladi:

diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun — murojaat olingan kundan e'tiboran bir oylik muddatda;

diniy tashkilotni qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun — murojaat olingan kundan e'tiboran o'n besh kunlik muddatda.

22-modda. Diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi hujjatlarni ko‘rib chiqish yakunlari

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi hujjatlarni ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish haqidagi;

diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risidagi.

Diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran uch ish kuni ichida:

diniy tashkilot haqidagi ma’lumotlarni diniy tashkilotlar reyestriga kiritadi;

diniy tashkilotni soliq organlarida va statistika organlarida hisobga qo‘yishni amalga oshiradi;

elektron tizimda diniy tashkilotning shaxsiy kabinetini yaratadi;

diniy tashkilotning ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi elektron guvohnomani shakllantiradi;

diniy tashkilotning ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi elektron guvohnomani va diniy tashkilot ustavini diniy tashkilotning elektron tizimdagи shaxsiy kabinetiga yuboradi.

Diniy tashkilotning qayta ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi elektron guvohnomada diniy tashkilot haqidagi avvalgi ma’lumotlar, shu jumladan uning nomi, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning nomi, diniy tashkilot ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana, shuningdek qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana ko‘rsatiladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning o‘zgarishi munosabati bilan diniy tashkilot qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan taqdirda, yangitdan ro‘yxatdan o‘tkazgan organ ilgarigi ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organni tegishli ro‘yxatdan o‘tkazishga oid ma’lumotlarni ko‘rsatgan holda elektron tizim orqali bu haqda xabardor qiladi.

Diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish rad etilgan taqdirda, qaror qabul qilingan kundan keyin bir ish kuni ichida elektron murojaatni yuboruvchining elektron tizimdagи shaxsiy kabinetiga rad etish asoslari ko‘rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi.

Diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish rad etilganligi, basharti rad etish asoslari bartaraf etilsa, hujjatlarni takroran taqdim etish uchun monelik qilmaydi.

23-modda. Diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish uchun asoslar

Diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish quyidagi hollarda rad etilishi mumkin, agar:

diniy tashkilotning tashkil etilishi konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirish, O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi chiqish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitish, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ‘ib etish, fuqarolarning sog‘lig‘iga va xalqning ma’naviyatiga tajovuz qilish maqsadini ko‘zlagan bo‘lsa;

diniy tashkilotni tuzishning qonunda belgilangan tartibi buzilgan bo‘lsa yoki taqdim etilgan hujjatlarda qonunchilikka nomuvofiqliklar mavjud bo‘lsa;

tuzilayotgan tashkilot diniy tashkilot sifatida e'tirof etilmagan bo'lsa;
taqdim etilgan ta'sis hujjatlarida atayin noto'g'ri axborot mavjudligi aniqlangan
bo'lsa.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazishni rad
etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

24-modda. Diniy tashkilotlar reyestri

Ro'yxatdan o'tkazilgan diniy tashkilot adliya organlari tomonidan elektron
tizimda yuritiladigan va hamma tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lgan diniy tashkilotlar
reyestriga (bundan buyon matnda reyestr deb yuritiladi) kiritiladi.

Reyestrda quyidagilar ko'rsatiladi:

diniy tashkilotning nomi va uning qaysi konfessiyaga mansubligi;
diniy tashkilotning joylashgan eri (pochta manzili);
diniy tashkilot faoliyat ko'rsatadigan hudud;
tashabbuskorlar (ta'sischilar) ishtirokchilar to'g'risidagi axborot (familiyasi, ismi,
otasining ismi), aloqa bog'lash uchun ma'lumotlar;
rahbar organning nomi va pochta manzili, aloqa bog'lash uchun ma'lumotlar;
diniy tashkilot ro'yxatdan o'tkazilgan sana va boshqa axborot.

5-bob. Diniy tashkilotning faoliyatini to'xtatib turish va tugatish

25-modda. Diniy tashkilotning faoliyatini to'xtatib turish

Diniy tashkilotning faoliyati, u O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarini buzgan taqdirda, sud tomonidan to'xtatib
turilishi mumkin.

Diniy tashkilot tomonidan qonunchilik hujjatlari talablari buzilgan, shuningdek
tashkilotning o'z ustav maqsadlariga zid harakatlar sodir etilgan taqdirda, prokuratura
organlari yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi organ mazkur qoidabuzarliklarni bartaraf etish
to'g'risidagi taqdimnomani ushbu diniy tashkilotning rahbar organlariga kiritadi hamda bu
qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatini belgilaydi. Agar bu qoidabuzarliklar
belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, diniy tashkilot faoliyati prokuratura organlarining
yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi organning taqdimnomasi asosida sud qarori bilan olti oygacha
bo'lgan muddatga to'xtatib turiladi.

Favqulodda holat joriy etilgan taqdirda diniy tashkilotning faoliyatini to'xtatib
turish tartibi qonunda belgilanadi.

26-modda. Diniy tashkilotning faoliyatini to'xtatib turish oqibatlari

Diniy tashkilotning faoliyati sudning qarorida belgilangan muddatga to'xtatib
turilgan taqdirda, uning xayriya fondlari muassisi sifatidagi huquqlari ham to'xtatib
turiladi, unga tadbirlar tashkil etish, bank omonatlaridan foydalanish taqiqilanadi, bundan
xo'jalik faoliyati, mehnat shartnomalari bo'yicha xarajatlar, o'z harakatlari (harakatsizligi)
tufayli yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash va jarimalar to'lashga doir xarajatlar
mustasno.

Agar diniy tashkilot faoliyatini to‘xtatib turishning sud tomonidan belgilangan muddati davomida uning faoliyati to‘xtatilishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan qoidabuzarliklar bartaraf etilsa, mazkur muddat tugaganidan keyin diniy tashkilot o‘z faoliyatini qaytadan boshlashi mumkin.

Diniy tashkilot ko‘rsatilgan qoidabuzarlikni bartaraf etmagan taqdirda, uning faoliyatini to‘xtatib turish to‘g‘risida sudga taqdimnomha kiritgan organ mazkur diniy tashkilotni tugatish haqida sudga taqdimnomha kiritishi mumkin.

27-modda. Diniy tashkilotni tugatish tartibi

Diniy tashkilotni tugatish qonunchilikka va diniy tashkilotning ustaviga asosan amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotni tugatish diniy tashkilotning vakolatli rahbar organi qaroriga binoan ixtiyoriy ravishda yoki ushbu Qonun 26-moddasining uchinchi qismiga muvofiq sud tartibida amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan diniy tashkilotning rahbar organi yoki sud tugatuvchini — tugatish komissiyasini yoki jismoniy shaxsni tayinlaydi, diniy tashkilotni tugatish muddatini belgilaydi.

Tugatish komissiyasi tarkibiga, qoida tariqasida, tegishli yuridik, iqtisodiy ma’lumotga ega va (yoki) buxgalteriya sohasida amaliy tajribaga ega bo‘lgan shaxslar kiritiladi.

Diniy tashkilotning rahbar organi tomonidan diniy tashkilotni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, tugatuvchi haqidagi ma’lumotlar ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga diniy tashkilotni tugatish to‘g‘risida rahbar organ qabul qilgan qarorning elektron ko‘chirma nusxasi ilova qilingan holda uch ish kuni ichida elektron tizim orqali taqdim etiladi.

Diniy tashkilot sud tomonidan tugatilgan taqdirda, tugatuvchi sudning qarorini elektron tizim orqali olganidan keyin qarorning elektron ko‘chirma nusxasini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga uch ish kuni ichida taqdim etadi.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tugatuvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni va diniy tashkilotni tugatish haqidagi rahbar organning qarorini olganidan keyin ikki ish kuni ichida reyestrga diniy tashkilotning tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritadi hamda bu haqda diniy tashkilot davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joydagi soliq organlarini va statistika organlarini, ko‘chmas mulkka va avtotransportga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlarni, shuningdek sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishni ta’minalash bo‘yicha organlarni elektron tizim orqali xabardor qiladi.

28-modda. Reyestrga diniy tashkilot tugatilganligi to‘g‘risida yozuv kiritish

Reyestrga diniy tashkilot tugatilganligi to‘g‘risida yozuv kiritish uchun tugatuvchi bu haqda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga elektron tizim orqali elektron murojaat yuboradi.

Elektron murojaatga quyidagi hujjatlarning ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi:

diniy tashkilot tugatilganligi to‘g‘risida davriy bosma nashrda berilgan e’lonning;
belgilangan tartibda tasdiqlangan tugatish balansining;

diniy tashkilotning barcha hisobvaraqlari yopilganligi to‘g‘risida xizmat ko‘rsatuvchi banklar ma’lumotnomalarining;

kreditorlarning talablari to‘liq qanoatlantirilganidan keyin qolgan mol-mulk tasarruf etilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlarning;

muhrlar va shtamplar yo‘q qilinganligi haqidagi dalolatnomaning;

litsenziyalar va ruxsatnomalarning (mavjud bo‘lgan taqdirda);

soliq organlarining soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligi to‘g‘risidagi xulosasining;

sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish bo‘yicha organning diniy tashkilot qarzdor sifatida ishtirok etayotgan, ijro etilmagan ijro hujjati mavjud emasligi haqidagi xabarnomasi;

diniy tashkilot hujjatlarining davlat arxiviga topshirilganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomaning.

Bunda hujjatlarning asl nusxalari ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga ikki ish kuni ichida taqdim etiladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tugatuvchining elektron murojaati olinganidan keyin reyestrga diniy tashkilot tugatilganligi to‘g‘risida besh ish kuni ichida yozuv kiritadi.

Agar hujjatlarning to‘liq ro‘yxati taqdim etilmagan yoki ular lozim tartibda rasmiylashtirilmagan bo‘lsa, shuningdek taqdim etilgan hujjatlarda atayin noto‘g‘ri axborot mavjudligi aniqlangan bo‘lsa, reyestrga yozuv kiritilishi rad etilishi mumkin.

Reyestrga yozuv kiritish rad etilgan taqdirda, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tugatuvchiga rad etish asoslarini ko‘rsatgan holda elektron tizim orqali bildirishnomasi yuboradi.

Reyestrga yozuv kiritish haqidagi qaror ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ rahbarining xulosasi tarzida qabul qilinadi.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ diniy tashkilot tugatilganligi to‘g‘risida reyestrga yozuv kiritilganidan keyin ikki ish kuni ichida:

diniy tashkilot tugatilganligi to‘g‘risida tugatuvchini, soliq organlarini va statistika organlarini elektron tizim orqali xabardor qiladi;

diniy tashkilotga berilgan litsenziyalar va ruxsatnomalarni (mavjud bo‘lgan taqdirda) ularni bergen organlarga topshiradi.

Diniy tashkilot reyestrga diniy tashkilot tugatilganligi to‘g‘risidagi yozuv kiritilgan paytdan e’tiboran tugatilgan deb hisoblanadi.

29-modda. O‘z faoliyatini tugatgan diniy tashkilotning mol-mulkini tasarruf etish

Diniy tashkilotga unga foydalanib turish uchun berilgan mol-mulk uning faoliyati tugatilganidan keyin avvalgi egasiga qaytariladi.

Diniy tashkilotning faoliyati tugatilganda uning tasarrufidagi mol-mulkka egalik qilish uning ustaviga va qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Kreditorlarning

da'volari bo'yicha undirish qaratilishi mumkin bo'limgan, ibodat qilish uchun mo'ljallangan mol-mulkning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Huquqiy vorislar mavjud bo'limganda mol-mulk davlat mulkiga o'tadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

30-modda. Nizolarni hal etish

Vijdon erkinligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solish sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

31-modda. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

32-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi 289-XII-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil, № 8, 186-modda);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi 290-XII-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil, № 8, 187-modda);

3) O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 934-XII-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 9, 334-modda);

4) O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-mayda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 618-I-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 5-6, 99-modda);

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 1-mayda qabul qilingan "Yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi 619-I-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 5-6, 100-modda);

6) O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrdagi qabul qilingan "Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-197-sonli Qonuning (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2008-yil, № 12, 640-modda) 2-moddasi;

7) O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlari o'zgartish va qo'shimchalar kiritish

to‘g‘risida”gi O‘RQ-476-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 4, 224-modda) 2-moddasi;

8) O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-683-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) 5-moddasi.

33-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

34-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

35-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

huquq kazuslar

Fozil davlat uning aholisi o‘zaro yordam berishiga, insonparvarlikka, insoniy mehr-oqibatga, uning eng oliy boylik ekanini payqab olishga, yaxshilashga asoslanish kerak.

To'ldiring

<i>Davlat nomlari</i>	<i>Monarxiya</i>	<i>Respublika</i>
O'zbekiston		
Rossiya		
Meksika		
Fransiya		
Quvayt		
Polsha		
Nigeriya		
Eron		
Afg'oniston		
Belgiya		
Islandiya		
Daniya		
Saudiya Arabiston		
Marokash		
Chili		
Kuba		

Ijodiy faoliyat

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizing, ota-onangiz yoki kattalar yordamida uni to'ldiring.

<i>Davlatlar</i>	<i>Boshqaruv shakli</i>	<i>Tuzilish shakli</i>
O'zbekiston	<i>respublika</i>	<i>unitar</i>
Rossiya		
AQSH		
Eron		
Ispaniya		
Braziliya		
Qozog'iston		
Buyuk Britaniya		

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va top~hiri.lar

1. O'zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyatni kim amalga oshiradi?
2. Vazirlar Mahkamasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Vazirlar Mahkamasi qay tartibda tuziladi?
4. Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kimlar kiradi?
5. Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlari nimalardan iborat?
6. Hukumat o'z faoliyatini amalga oshirish borasida qanday normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi?
7. Hukumatning qanday normativ-huquqiy hujjatlar chiqarish vakolatlari bor? Bu hujjatlarning qanday yuridik kuchi bor?

8. Hukumatsiz mamlakatni tasavvur qilib ko‘ring. Bunda qanday ahvol ro‘y berishi mumkin?
 9. Markaziy ijro etuvchi hokimiyatning faoliyatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish nima sababdan dolzarb bo‘lib qoldi?
 10. Konstitutsiyada ularning vazifalarini qay tarzda o‘zgartirish taklif qilin- gan?
 11. Davlat boshqaruvi vazifalarining bir qismini respublika darajasidan viro- yat, tuman, shahar miqyosiga o‘tkazilishining ijobiy ahamiyatga molik ekanligini asoslab berishga harakat qiling.
- Mahallangiz boshqaruvi organining tuzilishi, uning qanday vazifalarni bajarishini o‘rganib chiqing. O‘rganganlaringizni daftaringizga yozing. Mahalla fuqarolar yig‘ini boshqaruvi bo‘yicha fikrlaringizni sinfdosh- laringiz bilan muhokama qiling.

1. “Baxt bank” mansabdorlari tadbirdor Gulbahor Xamroyeva bilan til biriktirib, “Chaqqon” fermer xo‘jaligining “Baxt bank”dagi 20 million so‘m mablag‘ini 2019- yil 11- fevral kuni G. Xamroyevaning hisob raqamiga sohta hujjatlar asosida o‘tkazib berishgan, boshqacha qilib aytganda kuppe-kunduz kuni talon-taroj qilishgan.

Hozir buholat bo‘yicha “Baxt bank”ning mansabdorlariganisbatan JKning 167- moddasi 2- qismi “v”, “g” bandlari bilan jinoyat ishi qo‘z- g‘atilib, tergov boshlab yuborilgan.

167-модда. Ўзлаштириш ёки растрата йўли билан талон-торож қилиш

Айбдорга ишониб топширилган ёки унинг ихтиёрида бўлган ўзганинг мулкини ўзлаштириш ёки растрата қилиш йўли билан талон-торож қилиш, —

базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваригача миқдорда жарима ёки икки юз қирқ соатгача мажбурий жамоат ишлари ёхуд бир йилгача ахлоқ тузатиш ишлари билан жазоланади.

Ўша ҳаракат:

- а) кўп миқдорда;
 - б) такроран ёки хавфли рецидивист томонидан;
 - в) бир гурух шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб;
 - г) мансаб мавқеини суиистеъмол қилиш йўли билан содир этилган бўлса, —
- Олдинги таҳрирга қаранг.*

базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваридан уч юз бараваригача миқдорда жарима ёки тўрт юз саксон соатгача мажбурий жамоат ишлари ёки икки йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёхуд икки йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёки беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ўша ҳаракат:

- а) жуда кўп миқдорда;
 - б) ўта хавфли рецидивист томонидан;
 - в) ўюшган гурух томонидан ёки унинг манфаатларини қўзлаб;
 - г) компьютер техникиси воситаларидан фойдаланиб содир этилган бўлса, —
- Олдинги таҳрирга қаранг.*

базавий ҳисоблаш миқдорининг уч юз бараваридан олти юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёхуд беш йилдан ўн йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Олдинги таҳрирга қаранг.

Етказилган моддий зарарнинг ўрни қопланган тақдирда озодликни чеклаш ва озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо қўлланилмайди.

- 1) Yuqorida bayon qilingan holatga huquqiy baho bering.
- 2) Ushbu holatga nisbatan huquqiy normalarni qo'lllang.
- 3) Qo'llagan huquqiy normalarning gipoteza, dispozitsiya va sanksiya qismlarini ajratib ko'rsating.

- 4) Toshkent shahar IIBB xabariga ko'ra, 2019- yil 4- mayga o'tar kechasi Toshkent viloyatida yashovchi, muqaddam sudlangan, 24 yoshli S.Sh., 24 yoshli B.T, I.X.lar va Andijon viloyatida yashovchi, 23 yoshli H.O. 100 ming so'mlik nominaldagi milliy valyuta qalbaki kupyuralarini o'tkazish maqsadida Chilonzor tumaniga kelishgan.
- 5) Ko'rilgan choralar natijasida yuqorida ko'rsatilgan yigitlar kelgan avtomobil aniqlandi hamda 4- may kuni soat tahminan 03:30 larda avtomashina topildi va to'xtatildi. Mashina g'aladoni tekshirilganda, 100 ming so'm nominaldagi 51 ta soxta kupyura, chop etilgan milliy valuta kupyuralari tasvirlangan A4 shaklidagi 25 varaq qog'oz hamda soxta pullami tayyorlashda foydalanilgan "Canon" printeri aniqlandi.
- 6) Sud-kriminalistik ekspertiza xulosasiga ko'ra, 100 ming so'mlik 58 ta kupyura soxta bo'lib chiqdi.
- 7) Yuqorida nomlari qayd etilgan yigitlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 176-moddasi 2-qismi bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atildi.
- 8) Adolat, 2019- yil, №19

9) 176-модда. Қалбаки пул, акциз маркаси ёки қимматли қоғозлар ясаш, уларни ўтказиш

10) (176-модданинг номи Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 29 августдаги 681-I-сон Конуни таҳририда — Олий Мажлис Ахборотномаси, 1998 й., 9-сон, 181-модда)

11) Олдинги таҳрирга қаранг.

12) Ўтказиш мақсадида қалбаки банк билетлари (банкнотлар), металл тангалар, акциз маркалар, шунингдек, қимматли қоғозлар ёхуд чет эл валютаси ёки чет эл валютаидаги қимматли қоғозлар ясаш ёки уларни ўтказиш —

13) (176-модда биринчи қисмининг диспозицияси Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 29 августдаги 681-I-сон Конуни таҳририда — Олий Мажлис Ахборотномаси, 1998 й., 9-сон, 181-модда)

14) Олдинги таҳрирга қаранг.

15) икки йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёхуд беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

16) (176-модда биринчи қисмининг санкцияси Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 10 августдаги ЎРҚ-389-сонли Конуни таҳририда — ЎРҚҲТ, 2015 й., 32-сон, 425-модда)

17) Ўша ҳаракатлар:

18) а) такроран ёки хавфли рецидивист томонидан;

19) б) кўп миқдорда;

20) в) бир гуруҳ шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб содир этилган бўлса, —

21) Олдинги таҳрирга қаранг.

22) беш йилдан ўн йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

- 23) (176-модда иккинчи қисмининг санкцияси Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августдаги 254-II-сон Қонуни таҳририда — Олий Мажлис Ахборотномаси, 2001 й., 9-10-сон, 165-модда)
- 24) Ўша ҳаракатлар:
- 25) а) жуда кўп миқдорда;
- 26) б) уюшган гуруҳ томонидан ёки унинг манфаатларини кўзлаб содир этилган бўлса, —
- 27) Олдинги таҳрирга қаранг.
- 28) ўн йилдан ўн беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.
- 29) (176-модда учинчи қисмининг санкцияси Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августдаги 254-II-сон Қонуни таҳририда — Олий Мажлис Ахборотномаси, 2001 й., 9-10-сон, 165-модда)
- 30)  LexUZ шарҳи
- 31) Кўшимча маълумот учун қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги 11-сонли «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги қарорининг 10-банди, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 28 апрелдаги 8-сонли «Валюта қимматликларини қонунга хилоф равишда олиш ёки ўтказишига доир ишлар юзасидан суд амалиёти тўғрисида»ги қарорининг 12-банди, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 11 октябрдаги 35-сонли «Фирибгарликка оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарори 24-бандининг тўртинчи хатбошиси.

Uychi tumani Alisher Navoiy nomidagi mahallada yashovchi Zokirjon Abdullayev (ism-sharifi o‘zgartirilgan) bu yil yozda endigina 16 yoshga to‘ladi. Otasining bevaqt o‘limi tufayli o‘smir onasi bilan qolgan. Afsuski, ayni balog‘at ostonasiga qadam qo‘yayotgan yigitcha kutilmaganda qing‘ir ishga qo‘l urdi: joriy yil boshida qo‘shni xonadonda tengdoshi bilan birga o‘ynab yurib, qimmatbahо taqinchoqqa ko‘zi tushib qoldi, so‘ng hech kimga sezdirmay ziynatni olib chiqib ketdi. So‘ramasdan, yashirinchа olingan buyum o‘g‘irlik-da! Natijada bugun o‘zining ham, oilasining ham jamoatchilik, qo‘ni-qo‘shni oldida boshi egildi. Hozirgacha tumanda eng namunali hisoblab kelinayotgan mahalla nomiga dog‘ tushdi.

169-модда. Ўғрилик

Ўғрилик, яъни ўзганинг мол-мулкини яширин равишида талон-торож қилиш

Олдинги таҳрирга қаранг.

базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваригача миқдорда жарима ёки уч юз олтмиш соатгача мажбурий жамоат ишлари ёки икки йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёки бир йилдан уч йилгача озодликни чеклаш ёхуд уч йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

(169-модда биринчи қисмининг санкцияси Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 3 декабрдаги ЎРҚ-586-сонли Қонуни таҳририда — Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.12.2019 й., 03/19/586/4106-сон)

Олдинги таҳрирга қаранг.

Ўғрилик:

а) жабрланувчининг кийими, сумкаси ёки бошқа қўл юкидаги ашёга нисбатан (киссавурлик);

б) анча миқдорда;

в) бир гурух шахслар томонидан олдиндан тил бириклириб;

Олдинги таҳрирга қаранг.

г) уй-жой, омборхона ёки бошқа хонага ғайриқонуний равишда кириб;

(169-модда иккинчи қисмининг «г» кичик банди Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 13 мартағи ҮРҚ-822-сонли Конуни таҳририда — Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 14.03.2023 й., 03/23/822/0143-сон — 2023 йил 15 июндан кучга киради)

Олдинги таҳрирга қаранг.

д) умумий фойдаланишдаги электр, иссиқлик, газ ёки водопровод тармоқларига тижорат мақсадларида ўзбошимчалик билан уланиш ёхуд электр энергиясини, табиий газни, совуқ ёки иссиқ сувни ҳисобга олиш асбобларига, шу жумладан уларнинг пломбаларига қасдан шикаст етказиш ёхуд ҳисобга олиш асбобларининг кўрсаткичларини ўзгартириш мақсадида уларга ташқаридан аралашиш йўли билан;

е) умумий фойдаланишдаги электр, иссиқлик, газ ёки водопровод тармоқларига электр энергияси, газ ёки сув таъминоти ташкилотларининг мансабдор шахслари ёки ходимлари томонидан олдиндан тил бириклириб, тижорат мақсадларида ўзбошимчалик билан уланиш ёхуд электр энергиясини, табиий газни, совуқ ёки иссиқ сувни ҳисобга олиш асбобларига, шу жумладан уларнинг пломбаларига қасдан шикаст етказиш ёхуд ҳисобга олиш асбобларининг кўрсаткичларини ўзгартириш мақсадида уларга ташқаридан аралашиш йўли билан содир этилган бўлса, —

(169-модданинг иккинчи қисми Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 13 мартағи ҮРҚ-822-сонли Конунига асосан «д» ва «е» кичик бандлар билан тўлдирилган — Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 14.03.2023 й., 03/23/822/0143-сон — 2023 йил 15 июндан кучга киради)

Олдинги таҳрирга қаранг.

базавий ҳисоблаш миқдорининг уч юз бараваригача миқдорда жарима ёки икки йилдан уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёки уч йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёхуд уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

(169-модда иккинчи қисмининг санкцияси Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 3 декабрдаги ҮРҚ-586-сонли Конуни таҳририда — Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.12.2019 й., 03/19/586/4106-сон)

Ўғрилик:

а) такроран ёки хавфли рецидивист томонидан;

Олдинги таҳрирга қаранг.

б) қонунга хилоф равишда (рухсатсиз) ахборот тизимиға кириб ёки ундан фойдаланиб;

(169-модда учинчи қисмининг «б» банди Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 19 октябрдаги ҮРҚ-794-сонли Конуни таҳририда — Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 19.10.2022 й., 03/22/794/0939-сон)

Олдинги таҳрирга қаранг.

в) кўп миқдорда;

г) нефть қувурларида, газ қувурларида, нефть ва газ маҳсулотлари қувурларида содир этилган бўлса, —

(169-модданинг учинчи қисми «в» банди Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 7 октябрдаги ЎРҚ-355-сонли Қонунига асосан «в» ва «г» бандлар билан алмашибирлган — ЎР КХТ, 2013 й., 41-сон, 543-модда)

беш йилдан саккиз йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

(169-модданинг иккинчи ва учинчи қисмлари Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августдаги 254-II-сон Қонуни таҳририда — Олий Мажлис Ахборотномаси, 2001 й., 9-10-сон, 165-модда)

Ўғрилик:

- а) жуда кўп миқдорда;
- б) ўта хавфли рецидивист томонидан;

в) уюшган гурух томонидан ёки унинг манфаатларини кўзлаб содир этилган бўлса, —

Олдинги таҳрирга қаранг.

саккиз йилдан ўн беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

(169-модда тўртинчи қисмининг санкцияси Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августдаги 254-II-сон Қонуни таҳририда — Олий Мажлис Ахборотномаси, 2001 й., 9-10-сон, 165-модда)

 LexUZ шарҳи

O'zbekiston Respublikasi IIV Jamoatchilik va OAV bilan aloqalar boshqarmasi xabarida, 2019- yil 9- may kuni Toshkent shahrining Yakkasaroy tumani II Bga tushgan hujjatga ko'ra, unda shu yil 4- aprel kuni Mirzo Ulug'bek tumanida yashovchi 28 yoshli B.D. Samarqand viloyatida yashovchi 23 yoshli M.R.ni Yaponiyaga ishga jo'natishni aytib, uni aldab, ishonchiga kirib, 6 220 AQSH dollari va 4.500.000 so'm pullarini olib, shu kunga qadar bergan va'dasini bajarmay, pullarni o'z ehtiyoji uchun ishlatib yuborganligi ko'rsatilgan. Ko'rilgan choralar natijasida B.D. ushlangan. Holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

170-модда. Алдаш ёки ишончни суиистеъмол қилиш йўли билан мулкий зарар етказиш

Алдаш ёки ишончни суиистеъмол қилиш йўли билан мулкдорга анча миқдорда зарар етказиш, башарти, бу қилмишда талон-торож қилишнинг аломатлари бўлмаса, —

Олдинги таҳрирга қаранг.

базавий ҳисоблаш миқдорининг йигирма беш бараваригача миқдорда жарима ёки уч юз соатгача мажбурий жамоат ишлари ёхуд икки йилгача ахлоқ тузатиш ишлари билан жазоланади.

(170-модда биринчи қисмининг санкцияси Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 3 декабрдаги ЎРҚ-586-сонли Қонуни таҳририда — Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллӣ базаси, 04.12.2019 й., 03/19/586/4106-сон)

 LexUZ шарҳи

Кўшимча маълумот учун қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 11 октябрдаги 35-сонли «Фирибгарликка оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарори 13-банди.

Ўша ҳаракат:

- а) такроран ёки хавфли рецидивист томонидан;

- б) моддий жавобгар шахс томонидан;
 в) кўп миқдорда зарар етказган ҳолда содир этилган бўлса, —
Олдинги таҳрирга қаранг.

базавий ҳисоблаш миқдорининг йигирма беш бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима ёки уч юз соатдан уч юз олтмиш соатгача мажбурий жамоат ишлари ёхуд икки йилдан уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари билан жазоланди.

(170-модда иккинчи қисмининг санкцияси Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 3 декабрдаги ЎРҚ-586-сонли Қонуни таҳририда — Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.12.2019 й., 03/19/586/4106-сон)

Олдинги таҳрирга қаранг.

(170-модданинг учинчи қисми Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 марта даги ЎРҚ-421-сонли Қонунига асосан чиқарилган — ЎРҚХТ, 2017 й., 13-сон, 194-модда)

Jinoiy jazolar — Jinoyat Kodeksining 43- moddasiga binoan, quyidagilar

1. 5 yoshlik Dilshodning rasm solishga qobiliyati bor. Uning chiz- gan rasmlaridan ish jarayonida foydalanish uchun bog‘cha opasi albom tayyorladi.
 - Dilshodning huquqlari buzilganmi?
 - Dilshodning huquqini kim himoya qiladi?
2. Yozgi ta ’til kunlarida 14 yoshli Nabijon firmaga usta yordam- chisi bo‘lib ishga kirdi. Oyilik maoshlarini yig‘ib, planshet sotib oldi. U bunday qilishga haqlimi? fikringizni asoslang.

3. *O’zbekiston Pespublikasining Jinoyat Kodeksining 17-moddasidan foydalanib quyidagi jadvalni to’ldiring.*

Jinoyat sodir etgunga qadar 13 yoshga to’lgan shaxslar- ning iavohsarliklari	Jinoyat sodir etgunga qadar 14 yoshga to’lgan shaxslar- ning iavohsarliklari	Jinoyat sodir etgunga qadar 18 yoshga to’lgan shaxslar- ning iavohsarliklari

13 yoshli G‘anijonga buvasidan avtomashina meros bo‘lib o‘tdi. G‘anijon o‘gay ota-onasi bilan birga yashaydi. G‘anijonning otasi mashinani sotib, shartnomani rasmiylashtirish maqsadida hujjatlarni tasdiqlash uchun davlat idorasi (notarius) ga murojaat qildi. Ammo notarius shartnomani rasmiylashtirishdan bosh tortdi.

Kasb-hunar kollejining o‘quvchisi Dilshodbek 80000 so‘mlik DVD playerni kreditga oldi. Dilshodbek 16 yoshda bo‘lib, har oyda kollejning maxsus stipen- diyasini olar edi. Uning otasi Olim akaga o‘g‘lining xaridi ma’qul kelmadidi. U o‘g‘lining DVD playerga qiziqib, o‘qishga e’tibori kamayib ketishidan xavotirda edi. Shu sababli, Olim aka, o‘g‘li bu shartnomani tuzganidan bexabar ekanligini nazarda tutib, uni haqiqiy emas deb tan olinishini so‘rab sudga murojaat qildi.

Halimaning hech kimi yo‘q, u qarindoshlarining tarbiyasida bo‘lib, ota-onasi- dan meros uyi bor. U 16 yoshida tuman hokimining ruhsati bilan turmushga chiqdi. Erining uyiga ko‘chib o‘tishi munosabati bilan o‘ziga meros bo‘lib qolgan shaxsiy mulki bo‘lmish uyini sotishga qaror qildi. Shu maqsadda oldi-sotdi ishlarini rasmiylashtirish maqsadida qishloq fuqarolar yig‘ini raisiga yordam so‘rab murojaat qilgan edi, yig‘in raisi Halimani to‘la muomala layoqatiga yetmagan deb, shartnomani rasmiylashtirishga

ruxsat etmadi. Bundan xafa bo‘lgan Halima qishloq fuqarolar yig‘ini raisining qaroridan norozi holda sudga murojaat etmoqchi.

Ustaxona ma’muriyati o‘n besh yarim yoshli o‘smirni gaz payvandchisi sho- girdi qilib mustaqil ravishda ishga qabul qila- di. Tibbiy tekshiruvda shifokor (kasbni ko‘r- satmagan holda) ushbu o‘smir ishlab chiqarish amaliyotini o‘tishi mumkin degan ma’lumot- noma beradi. Uning uchun 6 soatlik ish kuni belgilanadi (maxsus qo‘shimcha to‘lovsiz).

Biroz muddatdan keyin prokuror yordamchisi mehnat qonunchiligiga rioya qilinishini umu- miy nazorat qilish tartibida tekshirish o‘tka- zib, tuman prokuraturasi orqali ustaxona mudiriga yozma bayonnomaga yuboradi va unda shogirdini boshqa ishga o‘tkazishni hamda o‘smirlar mehnatini muhofaza qilish bo‘yicha qonunchilikning bir qator buzilish hollarini tugatishni talab qiladi.



1. Prokurorning talabi asoslimi?
2. Ustaxona ma’muriyati tomonidan mehnat qonunchiligi buzilishining qanday hollari sodir bo‘ldi?
3. Shunga o‘xhash holatlarda qonunchiligidan sud tomonidan huqu- qiy javobgarlikning qanday turlari ko‘zda tutilgan?

“O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI

ASOSLARI” DAN MASALALAR

1. Maktabni radio mutaxassisligini egallash bilan birga bitirgan o‘quvchi: “Zavodga ishga kirishdan oldin zavod unga necha soat ish vaqtini belgilashi lozim”, - degan savolni yechish uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga murojaat qildi, lekin Konstitutsiyadan savoliga javob topa olmadidi. Yosh ishchi qaysi qonundan javob topishi mumkin? Konstitutsiya nega asosiy qonun deyiladi?

2. O‘zbekiston Konstitutsiyasingning 9- moddasida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendum)ga qo‘yiladi, deb ko‘rsatilgan.

Aytingchi, nimalar umumxalq ovozi bilan hal qilinadi?

3. O‘zbekiston Respublikasi terma jamoasining a’zosi N. endi 18 yoshga to‘lib, hayotida birinchi marotaba saylovga qatnashishi kerak edi. Lekin, musobaqa uchun boshqa shaharga ketishi tufayli N. saylovga qatnasha olmayman, deb achindi.

Aytingchi, N. saylovga qatnashadimi? Agar qatnashsa, qanday turda o‘z huquqini amalga oshiradi?

4. Respublika Konstitutsiyasi va “Mulk to‘g‘risida”gi qonun fuqarolarning xususiy mulkka egaligini bildirdi, turar joylar ham xususiylashtirildi. Bu qonundan foydalanib, fuqaro M. uyining xonalarini o‘ziga yoqadigan shaklda o‘zgartirish ishlarini boshladi, ayrim devorlarni olib tashladi, ikki xonadan katta bir uy tuzdi, oshxonani balkonga ko‘chirdi. Uy boshqarmasi xodimlari M. ga tanbeh berib, hamma xonalarni eski holatga keltirishni buyurdi. Bu uyda boshqalar ham istiqomat qilishini unga uqtirishdi.

Aytingchi, kim haq?

O'ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI

Og'ir oqibatning oldini olish choralar tes aniqlanganini e'tiborga olib, zararlangan moddalarni suvgaga oqizgan korxonaning lavozimli shaxslariga ma'muriy jazo qo'llash bilan cheklanishdi.



Quyidagi ma'muriy jazoning qaysi birini bu misolda qo'llash mumkin? Agar ayrim fuqarolar tomonidan bunday tartibbuzarlik bo'lsa, qanday choralar qo'llaniladi?

Agar ko'p miqdorda baliqlar nobud bo'lганida, korxona rahbarlariga qanday choralar qo'llanilar edi?

- A) jarima;
- B) axloq tuzatish ishlari;
- C) musodara qilish.

5. A. ismli xizmatchi ishdan bo'shash to'g'risida "o'z roziligi" bilan deb ariza yozdi. Bir qancha vaqt o'tgach rahbar chaqirib arizani qayta yozishni va ishdan bo'shash sababini ko'rsatishni talab qildi. A. rozilik bildirmadi.

Bu vaziyatda kim haq?

6. T. ismli haydovchi o'z vazifasiga sovuqqonlik bilan qaraganligi tufayli qimmatbaho asbobni ishdan chiqarib qo'ydi. Korxona rahbari unga hayfsan berish bilan bir qatorda keltirilgan zararni qoplash, jarima to'lash choralarini ko'rdi. T. rozi bo'lmadi.

Ma'muriyat harakati qonuniymi?

7. Ish vaqtı tugashiga bir soat qolganda 17 yoshli M. ishdan qaytish uchun eshik oldiga kelganida, bo'lim boshlig'i "Hali erta emasmi?" deb so'rab qoldi.

Bo'lim boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining qaysi moddasini bilishi shart?

8. 16 yoshli xodim S. 6 oy ishlaganidan so'ng unga mehnat ta'tili berishni rahbaridan so'radi. Rahbari hali ishlaganiga 6 oy to'lmanligini hisobga olib ta'til bermadi.

Rahbarning xatti-harakati mehnat qonuniga zidmi yoki yo'qmi?

9. Quyida ko'rsatilgan xizmatchilarga qaysi turdag'i ish vaqtı qo'llanilishi Mehnat kodeksida ko'rsatilgan (qisqartirilgan, to'liqsiz)?

- A) kasal onasiga qaragan xodimga;
- B) 16 yoshli xodimga;
- C) yosh bolali xodimga;
- D) zararli ishda ishlaydigan xodimga;
- E) ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qiydigan xodimga.

10. Sex boshlig'i 16 yoshli ishchini ishdan tashqari ishlashi to'g'risida buyruq berib, ikki hafta ishlashini so'radi. Lekin ishchi rozilik bildirmadi. Sex boshlig'i unga hayfsan e'lon qildi.

a) Bu vaziyatda sex boshlig'inining harakati qonuniymi?

b) Qonuniy bo'lmasa, ishchi qayerga murojaat qilishi mumkin?

11. F. ismli fuqaro bir necha kun o'z uyining oynasidan ikki o'spirin qo'shnisining mashinasasi atrofida yurganini ko'rdi. Kunlardan bir kun qo'shnisining mashinasining ikki g'ildiragi o'g'irlanganligini bilib qoldi. Qo'shnisining: "Kim o'g'irladi?" — degan dodvoyiga F.: "Kim o'g'irlar edi, ana shu ikki o'spirin o'g'irlagan", — deb aytdi.

F. haqmi? Agar u shubhalansa, kimga murojaat qilishi kerak edi?

12. Shavkatning otasi muntazam ravishda aroq ichadigan bo'lib qoldi. Kunlarning

birida u 8- sinfda o‘qiydigan o‘g‘liga majbur qilib aroq quyib berdi. Shavkat ko‘zi tinib, og‘zi achib, chidamasdan ko‘chaga qochib ketdi. Uni ko‘rgan ichki ishlar xodimi tartib buzilganligini yozma ravishda qayd etdi. Ertalab Shavkatning otasini ichki ishlar bo‘limiga chaqirib, jazolashlarini aytishdi.

Shavkatning otasiga qanday jazo chorasi qo‘llaniladi?

Qanday tartib buzilishi sodir bo‘ldi?

13. Buvisi boshqa mamlakatga ko‘chib ketishi munosabati bilan 12 yoshli nevarasiga turar joyini hadya qildi. Nevarasi u uyni biror narsaga almashtirmoqchi. Almashtirishga haqqi bormi? Fuqarolik qonuni bu huquqiy munosabatni qonuniy deb biladimi?

A) ha, haqli, u mulk egasi;

yo‘q, hali u 18 yoshda emas.

14. M. ismli fuqaro, Yakkasaroy tuman prokuraturasiga qo‘shnisi S. o‘z sherigi bilan birgalikda jinoyat qilishga tayyorgarlik ko‘rayotganligini ma’lum qiladi. Prokuror tergovchiga S. ni hibsga olishni buyurdi.

Aytingchi, prokuror to‘g‘ri buyruq berdimi?

Tergovchi Konstitutsianing qaysi moddasiga qarshi harakat qildi?

15. O. ismli fuqaro ishdan qaytib uyiga kelganda ayrim buyumlari o‘g‘irlanganligini ko‘rdi, o‘g‘ri shu mahallada yashovchi M. ekanligiga ishonch hosil qilib, uning eshigini buzib, uyidan mol-mulkini olib chiqib ketdi.

Aytingchi, O. Konstitutsianing qaysi moddasiga xilof harakat qildi? U qanday ish ko‘rmog‘i qonuniy?

16. 15 yoshli kollej talabalarini kursdoshlari Shuhrat va A’zam tug‘ilgan kunlariga chaqirishgan edi. Stol ustida 1 shisha spirtli ichimlik paydo bo‘lganligini ko‘rgan Botir: “Nega spirtli ichimlik qo‘ydinglar, bizga ichish mumkin emas. Buning uchun jarima solishadi”, - dedi.

— Qo‘ysangchi, agar biz ko‘chada, jamoat joyida ichsak jarima solishadi, biz esa o‘z uyimizdamiz, — dedi Bahodir.

— Ikkovlaring ham nohaqsanlar, — dedi Bahrom. Bizga spirtli ichimliklar ichish mumkin emas. Qayerda ichilmasin, baribir buning uchun ota-onalarimizga jarima solishadi.

Kim haq?

17. Alisher o‘rmonga ov miltig‘ini olib ketdi. O‘rmon yaqinida u ikkita g‘ozni ko‘rib, ularni otib o‘ldirdi. Shu zahoti tartib buzuvchini o‘rmon nazoratchisi ushlab oldi va tegishli organga topshirdi.

O‘rmon nazorati inspeksiyasi Alisherga o‘rmon xo‘jaligi ov qilish qoidalarini buzganligi uchun quyidagi choralarini ko‘rdi:

jarima 10000 so‘m, miltig‘ini va otilgan g‘ozlarni musodara qilish.

Alisher qanday turdag'i jazoga tortildi?

Maktab o‘quvchilarining bir guruhi tabiatni muhofaza qilish ishi bilan shug‘ullanar edilar. Maktab atrofidagi suvda zararli narsalar oqishini ko‘rib, baliqchilik nazorat inspeksiyasiga ma’lum qildilar.